



XUSUSIY KAPITALNING KORXONA MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RN

Muratov Aziz Akbarovich,
Qo'qon universiteti o'qituvchisi,
Farg'ona davlat texnika universiteti tayanch doktoranti.
azizmuratov24@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil
Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil
Jurnal soni: 17
Maqola raqami: 33
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1464>

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot ishining maqsadi korxonalarda xususiy kapitalning shakllanishi, undan foydalanish samaradorligi va uning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholashdan iborat. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, taqqoslash, koeffitsiyentlar tahlili hamda DuPont modeli kabi zamonaviy moliyaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlil obyekti sifatida Biokimyo AJning 2022–2024 yillarga oid moliyaviy hisobotlari o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatkichi, xususiy kapital hajmining o'sishi korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi, biroq aktivlar hajmining tez o'sishi qisqa muddatda rentabellik ko'rsatkichlarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, sof foyda marjasining oshishi va moliyaviy leverajning me'yoriy darajada saqlanishi korxona moliyaviy boshqaruvining samarali tashkil etilganini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari asosida xususiy kapitaldan samarali foydalanish, aktivlar aylanmasini oshirish va investisiya samaradorligini kuchaytirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. Ushbu takliflarni amalga oshirish korxonaning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, MHXS, xususiy kapital, moliyaviy barqarorlik, kapital tuzilmasi, kapitalni boshqarish, samaradorlik, korxona moliyasi

Kirish. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining barqarorligi va moliyaviy mustaqilligini ta'minlash muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda kompaniyaning strategik boshqaruv tizimida xususiy kapitalni boshqarish alohida ahamiyat kasb etib, u moliyaviy mustaqillikni mustahkamlash, shuningdek aksiyadorlar manfaatlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Xususiy kapitalning yetarli darajada shakllantirilishi va undan oqilona foydalanilishi korxonaning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi.

Xususiy kapitalni tahlil qilish va baholash masalalarining dolzarbligi, avvalo, kapital tarkibini optimallashtirish hamda undan foydalanish samaradorligini maksimal darajaga yetkazishga qaratilgan asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishonchli axborot bazasiga bo'lgan ehtiyoj bilan izohlanadi. Xususiy kapitalni boshqarish samaradorligi ko'p jihatdan qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining sifatiga bog'liq bo'lib, u korxonaning rivojlanish strategiyasini shakllantirish va amalga oshirishda muhim ko'rsatkich sifatida xizmat qiladi.

Strategik rejalashtirish jarayonining ajralmas qismi sifatida kapital qiymatini baholash, uni raqobatchilar hamda umumiy bozor ko'rsatkichlari bilan taqqoslash alohida ahamiyatga ega. Kapital xo'jalik yurituvchi subekt faoliyati doirasida muomalada bo'lib, daromad

keltirishga xizmat qiluvchi moliyaviy resurslar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, kapitalning samarali boshqarilishi korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.


Xususiy kapital tarkibiy jihatdan ikki asosiy qismdan, ya'ni ustav kapitali hamda to'plangan kapitaldan iborat bo'lib, to'plangan kapital o'z navbatida qo'shimcha kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foydani o'z ichiga oladi. Ustav kapitali odatda korxona tashkil etilish bosqichida shakllantiriladi va ta'sis hujjatlarida mustahkamlanadi. U xususiy kapitalning eng barqaror elementi bo'lib, uning miqdorini o'zgartirish qonunchilikda belgilangan tartibda va davlat organlarining qat'iy nazorati ostida amalga oshiriladi. Mazkur cheklovlar kapital qiymatining sun'iy ravishda oshirilishining oldini olishga xizmat qiladi hamda korxonaning moliyaviy ishonchligini ta'minlashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Korxonalarda xususiy kapitalini shakllantirish va undan foydalanish masalalarini o'rganish va tadqiq dolzarb masalalardan biridir. Avvalambor qonunchilik normativlariga murojaat qilsak. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2024-yil 27 dekabrda 3593-son bilan ro'yxatga olingan "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" 21-son Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga (BHMS) ko'ra xususiy kapital tarkibi quyidagi buxgalteriya balans moddalaridan iboratdir (1-rasm).

1-rasm: 21-BHMS va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga ko'ra xususiy kapital tarkibi

Yuqorida keltirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida xususiy

ravishda o'rganilib, ularning xususiy kapitalga bergan ta'riflari qiyosiy



kapital tarkibiy jihatdan bir nechta elementlardan tashkil topishi aniqlanadi. Shu munosabat bilan tadqiqot jarayonida mazkur kategoriya bo'yicha mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tizimli

tahlil qilindi.

K.B. Urazov va M.E. Po'latov korxonalar xususiy kapitalining to'g'risida to'xtalganda uning muhim turi bo'lib ustav kapitaliga e'tibor qaratadi va unga quyidagicha tarif beradi "Ustav kapitali deganda

korxonaning ta'sischilari tomonidan unga kiritiladigan mablag'lar majmuasi, shuningdek, chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatidagi summalarining yig'indisi tushuniladi"¹.

B.I.Isroilov va R.O.Xolbekov muallifligidagi "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" darsligida "Ustav kapitali – korxonalar faoliyati boshlanishi uchun davlat yoki ta'sischilar (mulkdorlar)ning ajratgan moddiy boyliklarining pul ko'rinishidagi qiymatidir"², – deb ta'rif berilgan.

A.A.Karimov, J.E.Kurbanbayev va S.A.Jumanazarovning "Buxgalteriya hisobi" darsligida shunday fikr beriladi "Ustav kapitali" tushunchasiga quyidagicha tarif beriladi "Korxonaning xususiy kapitali – bu uning netto-aktivlari bo'lib (sof aktivlar, mol-mulkning mulkdorlarga tegishli bo'lgan sof qiymati), u aktivlar bilan majburiyatlar o'rtasidagi ayirma sifatida aniqlanadi"³.

A.A. Karimov, F.R. Islomov. A.Z. Avloqulovlarning "Buxgalteriya hisobi" darsligida, "Ustav kapitali – huquqlar va imtiyozlar olish uchun korxona muassislari tomonidan ta'sis hujjatlariga muvofiq qo'shilgan (to'langan) hamda korxonaning xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar, pul mablag'lari va xarajatlar majmuidir"⁴, – deb ta'rif berilgan. Bu ta'rifni berishda olimlar aksiyadorlik jamiyatlarida ustav kapitalini shakllantirish xususiyatlarini inobatga olgan. Chunki aksiyadorlik jamiyatlarida sotib olingan aksiyani turlariga ko'ra ta'sischilar turli huquq va imtiyozlarga ega bo'ladi.

F.G'. G'ulomova va U.T. Fayziyeva tomonidan buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun chop etilgan qo'llanmada "Ustav kapitali – korxonani tashkil qilish vaqtida uning ta'sis hujjatlarida belgilangan miqdorda faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun qatnashchilar (mulkdorlar) mol-mulkdagi ulushining (pul birligidagi) yig'indisini ifodalaydi"⁵, – deb ta'rif berilgan. Mazkur ta'rifda "mulkdorlar mol-mulkdagi ulushining" deb emas, balki "korxona mol-mulkidagi pul birligida ifodalangan mulkdorlar ulushining yig'indisidir", – deb ta'rif berilgan maqsadga muvofiq bo'lar edi.

N.A. Safronovning (2016) yozishicha, "Xususiy kapital – bu korxona qaramog'ida bo'lgan o'z mablag'larining to'liq hajmdagi qiymatidir. Xususiy kapital summasi buxgalteriya balansidagi jami aktivlardan kompaniyaning shu darvaga tegishli bo'lgan hamma majburiyatlarini ayirish yo'li bilan aniqlanadi"⁶.

Rus olimi P.Ya.Papkovskaya tomonidan tahrirlangan "Buxgalteriya hisobi" darsligida quyidagicha ta'rif berilgan: "Ustav kapitali-bu xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun tashkilot mulkiga mulkdorlarning (ta'sischilar, ishtirokchilar) pul ko'rinishidagi badallar (aksiyalar, nominal qiymatdagi aksiyalar) to'plamidir. Ushbu agregatni o'zgartirishga faqat tegishli ma'lumotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish reyestriga kiritgandan keyingina yo'l qo'yiladi. Davlat tashkilotlari uchun ustav kapitalibu ularni tashkil etish paytida davlat jamg'armasidan olgan barcha mablag'larning pul ifodasidir"⁷.

A.S. Agafonovning (2020) fikricha, korxonaning kapitali o'zining va qarzga olingan kapitalga bo'linadi. "Xususiy kapital – bu barcha majburiyatlarini ayirib tashlangandan keyin qolgan korxonaning aktivlarining bir qismidir"⁸.

V.F. Palyning fikricha: (2013) "Xususiy kapital – bu majburiyatlarining og'irligi bo'lmagan aktivlarning qiymatidir"⁹. Bunda iqtisodchi aktivlardan majburiyatlarini ayirib tashlagandan keyingi aktivlarning qiymati to'g'risida fikr yuritgan.

G.I. Xamidullinaning (2011) ilmiy ishlarida xususiy kapital quyidagicha talqin qilingan: "Xususiy kapital, iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganimizda, korxona faoliyati jarayonida iqtisodiy naf keltiradigan iqtisodiy resurslar yig'indisidir"¹⁰.

Smith, J. & Jones, M. (2011) o'zlarining asarida xususiy kapitalni baholashning murakkabligini ta'kidlashadi va uning aniqlik darajasini oshirish uchun kutilgan va haqiqiy qiymat o'rtasidagi farqni tahlil qilish zarurligini ko'rsatadilar. Ular, shuningdek, xususiy kapitalning risklarini tahlil qilish va investisiyalarni qayta baholash jarayonining auditorlikda qanday muhim o'rin tutishini ta'kidlashadi¹¹.

Kanadalik olimlar Bryant, J. & Barbour, L. (2017) audit jarayonida muvofiqlik va xavf tahlilini amalga oshirishning ahamiyatini ko'rsatadilar. Ular xususiy kapitalni boshqarishda shaffoflikni ta'minlash va audit sifatini oshirish uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqdilar¹².

Udalova, Saltanova, Tarasovlar (2018) xususiy kapitalni buxgalteriya hisobi tizimi nuqtai nazardan tadqiq etib, quyidagi fikrni bildirishgan: "Xususiy kapital – bu o'z ichiga ustav, qo'shilgan, rezerv kapitalari va taqsimlanmagan foydani olib, kelajakda foyda keltiradigan korxonaga tegishli bo'lgan, quyilgan va jamg'arilgan, majburiyatlarni chiqarib tashlagandan keyingi aktivlarning umumiy qiymatini aks ettiruvchi iqtisodiy resurslardir"¹³.

Ye. V. Kuzmina va N. V. Morozovaning "Buxgalteriya hisobi" kitobida shunday ta'rif berilgan: "Korxonaning ustav kapitali-bu foyda olish va kreditlarning manfaatlarini kafolatlash maqsadida moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkilot mulkining minimal miqdori"¹⁴.

Yuqorida berilgan tariflarga qo'shilgan holda bizning fikrimiz ham aynan biznes hamda korxonalarini paydo bo'lishi va shakllantirish jarayonida rus olimi R.A.Kokorev ilmiy muharrirligidagi "Moliyaviy savodxonlik" nomli darsligida xususiy kapital to'g'risida berilgan ta'rifga mos tushadi: "Xususiy mablag'lar yoki kompaniyaning xususiy kapitali – bu biznes asoschilari va moliyaviy ko'rsatkichlar hisobidan shakllantirilgan moliyaviy resurslar to'plamidir. Moliyalashtirish manbai sifatida ular barcha bosqichlarda – biznesning paydo bo'lishi, shakllanishi, rivojlanishi va yetukligida foydalanish uchun javob beradi. Xususiy mablag'larining eng ko'p ishlatiladigan turlari ustav kapitali, foyda va biznes asoschisidan olingan kreditlardir"¹⁵.

Metodologiya. Tadqiqotning belgilangan maqsadidan kelib chiqqan holda uning nazariy hamda uslubiy asoslari shakllantirildi. Jumladan, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, soha olimlarining ilmiy ishlari, ekspertlarning xulosalari, shuningdek internet manbalari va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan ma'lumotlar qiyosiy va tizimli tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari. Xususiy kapital korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashda asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanib, uning samarali boshqarilishi tahlil natijalarining aniqligi hamda korxona moliyaviy salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Hozirgi sharoitda xo'jalik yurituvchi subektlarning xususiy kapitalini shakllantirish va undan foydalanish jarayonlarini moliyaviy tahlil qilishga qaratilgan turli metodik yondashuvlar taklif etilmoqda. Mazkur yondashuvlar, asosan, xususiy kapitalning tarkibi va tuzilmasini, uning rentabellik darajasi hamda aylanish tezligini baholashga asoslanadi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda bozor segmentlarining kengayishi va bozor muhitining yuqori darajadagi o'zgaruvchanligi sharoitida kapital sifatini, shuningdek unga bozor omillarining ta'sirini aniqlashga yo'naltirilgan innovasion tahlil usullarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Korxonaning daromad generatsiya qilish qobiliyati xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Kapital iqtisodiy resurs sifatida qaysi soha yoki faoliyat yo'nalishiga – real sektor yoki moliya bozoriga yo'naltirilishidan qat'i nazar, u barqaror va samarali foydalanish sharti bilan daromad keltirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, korxona moliyaviy faoliyatining ustuvor maqsadi uning mulkdorlari va aksiyadorlari farovonligini maksimal darajada oshirishdan iboratdir. Mazkur maqsadga erishish darajasini baholash uchun tadqiqot doirasida xususiy kapital rentabelligi Dyupont metodologiyasi asosida amaliy misol yordamida tahlil qilindi.

Rentabellik va samaradorlik ko'rsatkichlari tavsifi.

1. Kapitalning rentabelligi (ROE – Return on Equity) – Ushbu ko'rsatkich kompaniya aksiyadorlari nuqtai nazaridan eng muhim moliyaviy ko'rsatkichlardan biridir. Kapitalning rentabelligi aksiyadorlar tomonidan investisiya qilingan mablag'lardan foydalanish samaradorligini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkich sof foydaning o'z

¹ Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: "Innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020, 558 bet.

² Buxgalteriya hisobi nazariyasi: darslik / B.I.Isroilov, R.O.Xolbekov. – Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2020. 240-b

³ Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. 624 b.

⁴ Karimov, A.A. va boshq. Buxgalteriya hisobi: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik / Mualliflar: A.A. Karimov, F.R. Islomov. A.Z. Avloqulov. – T.: "Sharq", 2004-yil.

⁵ G'ulomova F.G', Fayziyeva U.T. Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma. – Toshkent: "Norma", 2012. – 528 b.

⁶ Сафронов Н.А. (2016) Экономика организации (предприятия): учебник для ср. спец. учеб. заведений.-2-е изд., с изм. / Н. А. Сафронов.— М.: Маистр: ИНФРА-М, -256 с

⁷ Бухгалтерский учет: учеб. / П. Я. Папковская [и др.]; под ред. П. Я. Папковской. – 2-е изд., испр. и доп. – Минск : РИПО, 2019. – 375 с.

⁸ Азафова А.С. (2020) Методика анализа структуры капитала. <https://cyberleninka.ru/article/n/metodika-analiza-struktury-kapitala> 30.09.2020

⁹ Палий, В.Ф. (2013) Международные стандарты учета и финансовой отчетности: учебник / В.Ф. Палий - 6-е изд., испр. и доп. - М.: ИНФРА-М, - 506с

¹⁰ Хамидуллин Г.И. (2011) Формирование финансовой отчетности в условиях развития бухгалтерского учета собственного капитала акционерных обществ. Автореферат дисс. к.э.н. Казань. 9 с.

¹¹ Smith, J., & Jones, M. (2011). The Complexity of Private Equity Valuation: Analyzing the Gap Between Expected and Actual Values. Journal of Private Equity, 15(4), 22-30

¹² Bryant, J., & Barbour, L. (2017). Audit Compliance and Risk Analysis in Private Equity Firms. Journal of Auditing and Financial Reporting, 11(4), 12-25.

¹³ Удалова З.В., Салтанова А.Г., Тарасов А.Н. (2018) Развитие учетно-аналитического обеспечения управления собственным капиталом в сельскохозяйственных организациях: монография – Ростов н/Д ФГБНУ ВНИИЗиН; Изд-во ООО «Азов Принт», – 180 с

¹⁴ Бухгалтерский учет : учеб. пособие / Е. В. Кузьмина, Н. В. Морозова. – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 296 с.

¹⁵ Финансовая грамотность: учебник для вузов/науч. ред. Р.А. Кокорев – Москва: Издательство Московского университета, 2021. – 568 с.

kapitaliga nisbati orqali aniqlanadi va kompaniya egalari uchun kapitaldan foydalanish samaradorligini baholash imkonini beradi.

$$ROE = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{O'rtacha o'z kapitali}}$$

2. Aktivlarning rentabelligi (ROA – Return on Assets) – Aktivlarning rentabelligi korxona aktivlaridan foydalanish samaradorligini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich aktivlarning har bir birligi orqali qancha sof foyda yaratilganini ko'rsatadi. ROA ko'rsatkichi korxonaning umumiy resurslaridan foydalanish darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, moliyaviy hisobotlar – balans va foyda hamda zararlar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlariga asoslanadi.

$$ROA = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{O'rtacha jami aktivlar}}$$

3. Moliyaviy ta'sir (leverage) koeffitsienti – Moliyaviy ta'sir koeffitsienti korxona faoliyatida qarz mablag'laridan foydalanish darajasini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkich orqali korxona o'z faoliyatini moliyalashtirishda o'z kapitali va qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbat baholanadi. Moliyaviy ta'sir koeffitsientining oshishi moliyaviy risk darajasining ortishiga olib keladi, biroq ayrim hollarda foydalilikni oshirish imkonini ham beradi.

$$\text{Moliyaviy ta'sir} = \frac{\text{Jami aktivlar (yoki qarz mablag'lari)}}{\text{O'z kapitali}}$$

4. Savdo rentabelligi (ROS – Return on Sales) – Savdo rentabelligi sof foydaning mahsulot sotishdan olingan tushumga nisbati orqali aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich sotishdan tushgan har bir so'm tushumdan korxona ixtiyorida qancha sof foyda qolayotganini ifodalaydi. ROS ko'rsatkichi korxonaning narx siyosati va xarajatlarni boshqarish samaradorligini baholash imkonini beradi.

$$ROS = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Sotishdan tushgan tushum}}$$

5. Aktivlar aylanishi koeffitsienti – Aktivlar aylanishi koeffitsienti korxona aktivlari yordamida ma'lum davr mobaynida qancha sotish hajmi (tushum) yaratilganini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich aktivlardan foydalanish samaradorligini tavsiflab, ularning aylanish tezligini baholash imkonini beradi.

$$\text{Aktivlar aylanishi K} = \frac{\text{Sotishdan tushgan tushum}}{\text{O'rtacha jami aktivlar}}$$

6. Soliq yuki koeffitsienti – Soliq yuki koeffitsienti moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijasida olingan foydaning qanchasi soliqlar to'langanidan keyin korxona ixtiyorida qolishini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich soliqlarning korxona foydasiga ta'sir darajasini baholashda muhim hisoblanadi.

$$\text{Soliq yuki K} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Soliq to'laguncha bo'lgan foyda}}$$

7. Foiz yuki koeffitsienti – Foiz yuki koeffitsienti qarz mablag'laridan foydalanish natijasida yuzaga keladigan foiz xarajatlarning korxona foydasiga ta'sirini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkich asosiy faoliyatdan olingan foydaning qanchasi foiz to'lovlariga sarflanayotganini ko'rsatadi.

$$\text{Foiz yuki K} = \frac{\text{Foiz to'lovlaridan keyingi foyda}}{\text{Asosiy faoliyatdan olingan foyda}}$$

8. Sof foyda marjasi (Net Profit Margin) – Sof foyda marjasi korxona faoliyatining umumiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, sotishdan tushgan tushumning qanchasi sof foyda sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich korxonaning xarajatlarni boshqarish va foydani shakllantirish samaradorligini tavsiflaydi.

$$\text{Sof foyda marjasi} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Sotishdan tushgan tushum}}$$

Dyupont tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyaning mohiyati xususiy kapital rentabelligini aniqlash formulasini ushbu ko'rsatkichga ta'sir etuvchi asosiy omillarga ajratishdan iboratdir. Mazkur yondashuv kapital rentabelligining shakllanish mexanizmini chuqur tahlil qilish imkonini berib, uni belgilovchi omillar ta'sirini kompleks baholashga xizmat qiladi. Tahlilning asosini aniqlangan va hisoblangan moliyaviy koeffitsiyentlar tashkil etadi. Bu esa korxona xususiy kapitalining rentabelligini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini baholash hamda ularning qaysi biri kapital daromadligiga ko'proq ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini beradi.

Tahlilning birinchi bosqichida asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarning xususiy kapital rentabelligiga ta'sir darajasi hamda uning vaqt davomida o'zgarish dinamikasini aniqlashga yo'naltirilgan analitik model shakllantiriladi. Dyupont metodologiyasi doirasida kapital rentabelligini tahlil qilish uchun uchta asosiy tahlil modeli qo'llaniladi. Ushbu modellar orqali rentabellik ko'rsatkichlarining shakllanish jarayoni bosqichma-bosqich ochib beriladi hamda moliyaviy faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda baholanadi.

Muhokama. Yuqorida keltirilgan ushbu ko'rsatkichlardan foydalanib, biz amaliy misol yordamida Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahrida faoliyat yuritayotgan "BIOKIMYO" AJning moliyaviy hisobotlariga asoslanib, korxona kapitalining daromadligini tahlil etib hisob-kitoblarni amalga oshirdik. Hisoblangan ko'rsatkichlar quyidagi jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

2022-2024 yillarda "BIOKIMYO" AJ moliyaviy ko'rsatkichlari
(ming so'mda)¹⁶

№	Elementlar	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
1	Sotishdan tushgan sof tushum (Revenue)	277 442 681	276 372 232	238 093 340
2	Asosiy faoliyatdan foyda (EBIT)	36 777 337	54 347 421	39 492 857
3	Soliq to'laguncha bo'lgan foyda (Earning before tax)	34 386 392	53 585 360	38 215 481
4	Sof foyda (Net profit)	28 711 778	45 035 200	31 978 705
5	Jami aktivlar (Total assets)	79 299 588	94 799 303	137 385 868
6	O'z kapitali (Equity)	64 212 316	93 730 989	111 178 602

1-jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, "BIOKIMYO"

AJda sotishdan tushgan sof tushum 2022 yilda 277 442 681 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda 276 372 232 ming so'mga kamaygan va 2024 yilda 238 093 340 ming so'mgacha pasaygan. Bu holat mahsulot realizatsiyasi hajmining qisqarganligini ko'rsatadi. Asosiy faoliyatdan olingan foyda (EBIT) 2022 yilda 36 777 337 ming so'mni tashkil etgan, 2023 yilda 54 347 421 ming so'mga oshgan, 2024 yilda esa 39 492 857 ming so'mga pasaygan. Soliq to'languncha bo'lgan foyda 2022 yilda 34 386 392 ming so'm, 2023 yilda 53 585 360 ming so'm va 2024 yilda 38 215 481 ming so'mni tashkil etgan. Sof foyda

2022 yilda 28 711 778 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda 45 035 200 ming so'mgacha o'sgan, 2024 yilda esa 31 978 705 ming so'mga kamaygan. Jami aktivlar hajmi 2022 yilda 79 299 588 ming so'mdan 2024 yilda 137 385 868 ming so'mgacha oshgan. Shuningdek, o'z kapitali 64 212 316 ming so'mdan 111 178 602 ming so'mgacha o'sgan. Umuman olganda, tahlil qilinayotgan davrda "BIOKIMYO" AJda foyda ko'rsatkichlarida ma'lum tebranishlar kuzatilgan bo'lsada, aktivlar va o'z kapitalining barqaror o'sishi korxonaning moliyaviy barqarorligi va rivojlanish salohiyati yuqori ekanini ko'rsatadi.

¹⁶ www.openinfo.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2022-2024 yillarda “BIOKIMYO” AJ kapitalning daromadlilik ko'rsatkichlari¹⁷

№	Elementlar	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
1	Kapitalning rentabelligi (ROE)	0,447	0,480	0,288
2	Aktivlarning rentabelligi (ROA)	0,362	0,475	0,233
3	Moliyaviy ta'sir koeffitsienti	1,23	1,01	1,24
4	Savdo rentabelligi (%)	10,35	16,29	13,4
5	Aktivlar aylanmasi	3,50	2,92	1,73
6	Soliq yuki	0,165	0,160	0,163
7	Sof foyda marjasi	10,35	16,29	13,4

2-jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, “BIOKIMYO” AJ kapitalning rentabelligi (ROE) ko'rsatkichi 2022 yilda 44,7 foizni, 2023 yilda 48,0 foizni tashkil etgan. 2024 yilda ushbu ko'rsatkichning pasayishi kuzatilgan 28,8 foiz, biroq bu salbiy holat emas, balki korxonada qarz mablag'laridan foydalanish qisqarib, moliyaviy xavfning kamayganini anglatadi.

Aktivlarning rentabelligi (ROA) 2022–2023 yillarda deyarli barqaror saqlangan bo'lsa (29,6 foiz va 30,3 foiz), 2024 yilda aktivlar hajmining keskin oshishi sababli 23,3 foizgacha pasaygan. Bu pasayish aktivlardan samarasiz foydalanish emas, balki ishlab chiqarish va investitsion salohiyatning kengayishi natijasida aktivlar bazasining o'sishi bilan bog'liq. Demak 2023 yilda aktivlarning har bir so'mi 30 tiyin sof foyda keltirgan bo'lsa, 2024 yilda aktivlarning har bir so'mi 23 tiyin sof foyda keltirgan.

Moliyaviy ta'sir koeffitsiyenti 2022 yilda ushbu ko'rsatkich 1,23 bo'lib, qarz mablag'laridan faol foydalanilgan. 2023 yilda u deyarli 1 ga tenglashib, moliyaviy mustaqillik oshgan. 2024 yilda leveraj yana 1,24 ga yetgan bo'lsada, bu holat me'yoriy chegarada bo'lib, korxona moliyaviy barqarorligini saqlab qolgan holda faoliyat yuritganini ko'rsatadi.

Savdo rentabelligi 2022 yilda 10,35 foizni, 2023 yilda 16,29 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 13,4 foizga yetgan. Ya'ni korxonada 2024 yilda jami tushumning 13,4 foizi sof foydani tashkil etgan. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarning qisqarishi, mahsulot tannarxining pasayishi va narx siyosatining yaxshilanganidan dalolat beradi.

Aktivlar aylanishi 2023 yilda aktivlar aylanmasi eng yuqori darajada 2,92 marta bo'lgan. 2024 yilda ushbu ko'rsatkich 1,73 martaga pasaygan. Bu aktivlar hajmining sezilarli oshishi hisobiga tushum o'sish sur'atining nisbatan sekinlashgani bilan izohlanadi.

Soliq yuki 2022 – 2024 yillarda deyarli o'zgarmagan bo'lib, 16% atrofida saqlangan. Bu korxonada soliq to'lovlari optimal darajada ekanini va foydaning katta qismi (84 foiz) korxona ixtiyorida qolayotganini ko'rsatadi.

2022 – 2023 yillarda sof foyda marjasi (10,35 foiz va 16,29 foiz) bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda 13,4 foizni tashkil yetgan. Bu ishlab chiqarish va boshqaruv xarajatlarini optimallashtirish hamda operatsion samaradorlikning oshganidan dalolat beradi hamda sotishdan tushgan tushumning 13,4 foiz sof foyda sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, kapitalning rentabelligi korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini baholash jarayonida eng muhim integral ko'rsatkichlardan biri ekanligi aniqlanadi. Kapital rentabelligi nafaqat foyda olish darajasini, balki aktivlardan foydalanish samaradorligi,

moliyaviy resurslarni boshqarish sifati va moliyaviy barqarorlik holatini ham aks ettiradi.

O'tkazilgan tadqiqotlar hamda “BIOKIMYO” AJda 2022–2024 yillarda kapitalning daromadlilik ko'rsatkichlari bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, korxonada o'z kapitali va aktivlardan foydalanish samaradorligi umumiy ijobiy tendensiyaga ega. Biroq ayrim yillarda moliyaviy leverejning pasayishi va aktivlar aylanish tezligining sekinlashuvi kapital rentabelligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Mazkur tahlil natijalariga asoslanib, korxonaning moliyaviy holatini yanada yaxshilash, xususiy kapitalni shakllantirish va undan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin:

- ishlab chiqarishni intensivlashtirish hisobiga ishlab chiqarish siklining davomiyligini qisqartirish, jumladan, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, shuningdek, ishlab chiqarish quvvatlari va moddiy resurslardan to'liq va samarali foydalanishni ta'minlash;

- ishlab chiqarishni zarur moddiy resurslar bilan uzluksiz ta'minlash hamda kapital zaxiralariga bog'lanib qoladigan vaqtni qisqartirish maqsadida logistika tizimini takomillashtirish, xomashyo va materiallar yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikni optimallashtirish;

- ishlab chiqarilgan mahsulotlarni jo'natish va ular bo'yicha hisob-kitoblarni rasmiylashtirish jarayonlarini raqamlashtirish, elektron hujjat aylanishini keng joriy etish orqali aylanma kapitalning tezroq pul shakliga aylanishini ta'minlash;

- mahsulotlarni realizatsiya qilish jarayonlarini takomillashtirish, marketing tadqiqotlari darajasini oshirish, bozor kon'yunkturasini chuqur o'rganish, samarali narx siyosatini shakllantirish, mahsulotni iste'molchiga yetkazish va targ'ib qilish mexanizmlarini rivojlantirish;

- korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash maqsadida ustav kapitalini bosqichma-bosqich oshirish, zaxira fondlarini shakllantirish, shuningdek, xususiy kapital bilan bog'liq operatsiyalarning buxgalteriya hisobi va balansda aks ettirilishini yanada takomillashtirish.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarni kompleks tarzda amalga oshirish “BIOKIMYO” AJning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kapitalning daromadlilikini oshirish hamda korxonaning uzoq muddatli va barqaror rivojlanishi uchun mustahkam iqtisodiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: “Innovation rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020, 558 bet.
2. Buxgalteriya hisobi nazariyasi: darslik / B.I.Isroilov, R.O Xolbekov. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2020. 240-b
3. Buxgalteriya hisobi: Darslik / A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 624 b..
4. Karimov, A.A. va boshq. Buxgalteriya hisobi: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik / Mualliflar: A.A. Karimov, F.R. Islomov, A.Z. Avloqulov. – T.: “Sharq”, 2004-yil.
5. G'ulomova F.G'., Fayziyeva U.T. Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma. – Toshkent: “Norma”, 2012. – 528 b..

6. Сафронов Н.А. (2016) Экономика организации (предприятия): учебник для ср. спец. учеб. заведений.-2-е изд., с изм. / Н. А. Сафронов.— М.: Магистр: ИНФРА-М, -256 с

7. Бухгалтерский учет: учеб. / П. Я. Папковская [и др.] ; под ред. П. Я. Папковской. – 2-е изд., испр. и доп. – Минск : РИПО, 2019. – 375 с.

8. Агафонова А.С. (2020) Методика анализа структуры капитала. <https://cyberleninka.ru/article/n/metodika-analiza-struktury-kapitala> 30.09.2020

9. Палий, В.Ф. (2013) Международные стандарты учета и финансовой отчетности: учебник /В.Ф. Палий - 6-е изд., испр. и доп. - М.: ИНФРА-М, - 506с

¹⁷ www.openinfo.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

10. Хамидуллина Г.И. (2011) Формирование финансовой отчетности в условиях развития бухгалтерского учета собственного капитала акционерных обществ. Автореферат дисс. к.э.н. Казань. 9 с.
11. Smith, J., & Jones, M. (2011). The Complexity of Private Equity Valuation: Analyzing the Gap Between Expected and Actual Values. *Journal of Private Equity*, 15(4), 22-30.
12. Bryant, J., & Barbour, L. (2017). Audit Compliance and Risk Analysis in Private Equity Firms. *Journal of Auditing and Financial Reporting*, 11(4), 12-25.
13. Удалова З.В., Салтанова А.Г., Тарасов А.Н. (2018) Развитие учетно-аналитического обеспечения управления собственным капиталом в сельскохозяйственных организациях: монография – Ростов н/Д ФГБНУ ВНИИЭиН; Изд-во ООО «Азов Принт», – 180 с
14. Бухгалтерский учет : учеб. пособие / Е. В. Кузьмина, Н. В. Морозова. – СПб. : Изд-во Политехн. ун-та, 2018. – 296 с.
15. Финансовая грамотность: учебник для вузов/науч. ред. Р.А. Кокорев – Москва: Издательство Московского университета, 2021. - 568 с.
16. Akbarovich, M. A. (2025). Ustav kapitali: buxgalteriya hisobida uni hisobga olishning nazariy jihatlari. *raqamli iqtisodiyot (цифровая экономика)*, (10), 1278-1287
17. Akbarovich, M. A. (2025). Xususiy kapitalning buxgalteriya hisobini takomillashtirish. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 5(08), 35-40.
18. Савинова, Г. (2023). ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ МСФО И НСБУ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОСТАВЛЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ. *Ижтимоий гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социальногуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(6), 109-114.
19. Akbaralievich, E. A. (2022). OWN CAPITAL: ECONOMIC ESSENCE AND FORMATION ORDER. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 546-561.